




SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-noyabr holatiga Samarcand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 42 483 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 36 389 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 62 969 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

(1-noyabr holatiga)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)**


2024-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 6 154 tani tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha eng ko'p tashkil etilgan korxona va tashkilotlar quyidagicha: Samarqand shahrida (1 558 ta), Samarqand (870 ta) va Pastdarg'om (469 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni savdo – 2 173 ta, sanoat – 939 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 728 ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 622 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-noyabr holatiga 42 483 tani tashkil etdi, ulardan 36 603 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,1 foiz, sanoat – 13,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,1 foiz, qurilish – 5,6 foiz, hududlar kesimida esa eng ko'pi Samarqand shahrida – 28,4 foiz, tumanlardan Samarqand – 8,8 foiz, Urgut – 7,9 foiz, Pastdarg'om – 7,4 foiz va Kattaqo'rg'on tumanida – 5,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

| | |
|-------------------|------------------|
| Samarqand sh. | 12 061 |
| 3 718 | Samarqand t. |
| Urgut t. | 3 337 |
| 3 144 | Pastdarg'om t. |
| Payariq t. | 2 107 |
| 2 091 | Kattaqo'rg'on t. |
| Toyloq t. | 2 011 |
| 1 984 | Ishtixon t. |
| Bulung'ur t. | 1 898 |
| 1 718 | Oqdaryo t. |
| Jomboy t. | 1 713 |
| 1 482 | Narpay t. |
| Kattaqo'rg'on sh. | 1 404 |
| 1 371 | Nurobod t. |
| Paxtachi t. | 1 246 |
| 1 198 | Qo'shrabot t. |

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2024-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 6 012 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 5 986 ta;
- Yirik korxonalar 26 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni

(birlikda)

6 012 → **2024**

2023 ← **6 714**

9 286 → **2022**

2021 ← **9 212**

7 346 → **2020**


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

| | |
|-------------------|------------------|
| Samarqand sh. | 1 513 |
| 860 | Samarqand t. |
| Pastdarg‘om t. | 461 |
| 361 | Kattaqo‘rg‘on t. |
| Bulung‘ur t. | 329 |
| 329 | Urgut t. |
| Toyloq t. | 283 |
| 236 | Oqdaryo t. |
| Nurobod t. | 234 |
| 226 | Payariq t. |
| Ishтиxон t. | 222 |
| 207 | Narpay t. |
| Paxtachi t. | 195 |
| 190 | Jomboy t. |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 183 |
| 183 | Qo’shrabott. |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-noyabr holatiga 36 603 tani tashkil etdi, ulardan 36 389 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 43,0 foiz, sanoat – 15,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,0 foiz, qurilish – 6,4 foiz, tashish va saqlash – 2,8 foiz, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,6 foiz, axborot va aloqa – 2,0 foiz, boshqa turlari – 11,3 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 625 tadan 727 taga (o‘sish 102 taga), axborot va aloqa – 159 tadan 307 taga (o‘sish 148 taga) ko‘paydi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

| | |
|-------|-------------------|
| 1 503 | Samarqand sh. |
| 851 | Pastdarg‘om t. |
| 460 | Kattaqo‘rg‘on t. |
| 361 | Bulung‘ur t. |
| 329 | Urgut t. |
| 327 | Toyloq t. |
| 282 | Oqdaryo t. |
| 235 | Nurobod t. |
| 234 | Payariq t. |
| 225 | Ishtixon t. |
| 222 | Narpay t. |
| 207 | Paxtachi t. |
| 195 | Jomboy t. |
| 190 | Kattaqo‘rg‘on sh. |
| 183 | Qo’shrabott t. |
| 182 | |


**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Samarcand shahrida (29,0 foiz), Samarcand (9,3 foiz), Urgut (7,6 foiz), Pastdarg'om (7,3 foiz) va Kattaqo'rg'on (4,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.



2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil 1-noyabr holatiga)

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Nurobod (14,5 foiz), Samarqand (11,5 foiz) va Kattaqo'rg'on (11,4 foiz) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | |
|-------------------|-----|
| Nurobod t. | 378 |
| Samarqand t. | 300 |
| Kattaqo'rg'on t. | 298 |
| Pastdarg'om t. | 278 |
| Bulung'ur t. | 228 |
| Urgut t. | 141 |
| Oqdaryo t. | 136 |
| Payariq t. | 116 |
| Paxtachi t. | 116 |
| Ishtixon t. | 109 |
| Qo'shrabot t. | 100 |
| Jomboy t. | 97 |
| Narpay t. | 93 |
| Samarqand sh. | 91 |
| Toyloq t. | 79 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 43 |

Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish 2 433



148

Baliq ovlash va akvakultura



O'rmonchilik va yog'och taylorash 22



Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-noyabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 13,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,7 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,9 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, 1,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | |
|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 1 124 |
| Urgut t. | 794 |
| Samarqand t. | 611 |
| Pastdarg'om t. | 423 |
| Ishtixon t. | 307 |
| Toyloq t. | 305 |
| Jomboy t. | 274 |
| Kattaqo'rg'on t. | 267 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 233 |
| Oqdaryo t. | 225 |
| Bulung'ur t. | 218 |
| Payariq t. | 209 |
| Narpay t. | 193 |
| Paxtachi t. | 167 |
| Qo'shrabot t. | 149 |
| Nurobod t. | 125 |

Yillar kesimida soni (birlikda)



5 329 | Ishlab chiqarish sanoati

219 | tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

56 | Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

20 | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

(2024-yil 1-noyabr holatiga)



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 23,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 18,2 foiz ulushni tashkil etdi;

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 803 |
| Payariq t. | 196 |
| Pastdarg'om t. | 183 |
| Samarqand t. | 165 |
| Urgut t. | 151 |
| Toyloq t. | 112 |
| Oqdaryo t. | 106 |
| Kattaqo'rg'on t. | 98 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 94 |
| Jomboy t. | 90 |
| Ishtixon t. | 80 |
| Narpay t. | 65 |
| Qo'shrabot t. | 61 |
| Bulung'ur t. | 59 |
| Paxtachi t. | 53 |
| Nurobod t. | 45 |

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Bino va
inshootlar qurish



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



Fuqarolik
obyektlarini qurish

(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 15 331 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 70,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 19,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,9 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | |
|-------------------|-------|
| Samarkand sh. | 4 278 |
| Samarkand t. | 1 483 |
| Pastdarg'om t. | 1 280 |
| Urgut t. | 1 061 |
| Payariq t. | 841 |
| Ishtixon t. | 790 |
| Bulung'ur t. | 785 |
| Toyloq t. | 760 |
| Oqdaryo t. | 700 |
| Kattaqo'rg'on t. | 687 |
| Jomboy t. | 672 |
| Narpay t. | 610 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 532 |
| Paxtachi t. | 487 |
| Qo'shrabot t. | 471 |
| Nurobod t. | 317 |

Yillar kesimida soni (birlikda)



11 173

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

3 021

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

1 560

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024-yil 1-noyabr holatiga 3 514 taga yetib, ularning 3 492 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 13,0 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 87,0 foiz ulushini tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | |
|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 1 383 |
| Samarqand t. | 304 |
| Urgut t. | 205 |
| Pastdarg'om t. | 192 |
| Kattaqo'rg'on t. | 169 |
| Toyloq t. | 169 |
| Payariq t. | 166 |
| Jomboy t. | 138 |
| Ishtixon t. | 135 |
| Oqdaryo t. | 116 |
| Bulung'ur t. | 116 |
| Narpay t. | 111 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 110 |
| Nurobod t. | 75 |
| Qo'shrabot t. | 70 |
| Paxtachi t. | 55 |

Yillar kesimida soni (birlikda)



Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



(2024-yil 1-noyabr holatiga)

2024-yil 1-noyabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining 70,6 foizini;

- axborot xizmatlari va noshirlilik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 24,9 foizini;
- ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 4,5 foizini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 341 |
| Samarqand t. | 71 |
| Urgut t. | 53 |
| Payariq t. | 51 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 39 |
| Oqdaryo t. | 37 |
| Pastdarg'om t. | 37 |
| Ishtixon t. | 28 |
| Bulung'ur t. | 20 |
| Toyloq t. | 18 |
| Kattaqo'rg'on t. | 17 |
| Jomboy t. | 14 |
| Qo'shrabot t. | 10 |
| Narpay t. | 9 |
| Nurobod t. | 7 |
| Paxtachi t. | 4 |

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

282

252

Aloqa



Noshirlilik faoliyi

91

97

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyi



Kino-videofilmlar, televizion
dasturlar, fonogrammalar va
musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

17

17

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 959 tasi yoki 90,3 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlilar shuni ko'rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,4 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,0 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 0,6 foizini tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 432 |
| Samarqand t. | 66 |
| Toyloq t. | 66 |
| Urgut t. | 65 |
| Pastdarg'om t. | 51 |
| Nurobod t. | 51 |
| Ishtixon t. | 50 |
| Payariq t. | 50 |
| Oqdaryo t. | 43 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 40 |
| Jomboy t. | 39 |
| Bulung'ur t. | 29 |
| Kattaqo'rg'on t. | 26 |
| Narpay t. | 20 |
| Qo'shrabot t. | 17 |
| Paxtachi t. | 17 |

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat



Yashash uchun joy
bilan ta'minlangan
holda parvarishlash

21



(2024-yil 1-noyabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**


| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 381 |
| Samarqand t. | 99 |
| Toyloq t. | 99 |
| Urgut t. | 81 |
| Pastdarg'om t. | 60 |
| Jomboy t. | 50 |
| Ishtixon t. | 39 |
| Bulung'ur t. | 37 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 28 |
| Oqdaryo t. | 26 |
| Payariq t. | 26 |
| Narpay t. | 24 |
| Kattaqo'rg'on t. | 20 |
| Nurobod t. | 19 |
| Paxtachi t. | 16 |
| Qo'shrabot t. | 11 |

2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushi jami viloyatdag'i faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 2,4 foizini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 66,7 foizini tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 29,0 foizini;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,5 foizini;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,8 foizini tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot

(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)

23 629

mas'uliyati cheklangan jamiyat

64,6

4 875

xususiy korxonalar

13,3

7 768

oilaviy korxonalar

21,2

23

aksiyadorlik jamiyat

0,1

308

boshqalar

0,8

(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni

(birlikda)

4 414

2024

2023

4 513

5 165

2022

2021

4 925

4 027

2020

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh. 1 236

Samarqand t. 688

Bulung'ur t. 273

Pastdarg'om t. 272

Urgut t. 236

Kattaqo'rg'on t. 222

Nurobod t. 216

Oqdaryo t. 184

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



473

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi



536

Sanoat



247

Qurilish



1 578

Savdo



122

Tashish
va saqlash



420

Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



285

Axborot
va aloqa



100

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish



653

Boshqa turlar

Toyloq t.

168

Qo'shrabot t.

164

Payariq t.

153

Kattaqo'rg'on sh.

138

Ishtixon t.

129

Narpay t.

125

Jomboy t.

116

Paxtachi t.

94

(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Amaldagi 36 603 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024-yil 1-noyabr holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 629 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,4 foiz, sanoat – 14,1 foiz, qurilish – 8,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,2 foiz.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**

23 629

2024

2023

23 607

27 600

2022

2021

23 892

19 051

2020

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



1 929

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi



3 333

Sanoat



2 016

Qurilish



9 787

Savdo



872

Tashish
va saqlash



1 352

Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



592

Axborot
va aloqa



703

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish



3 045

Boshqa turlar

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh. 7 990

Nurobod t. 961

Samarqand t. 2 226

Oqdaryo t. 953

Urgut t. 1 808

Toyloq t. 867

Pastdarg'om t. 1 396

Jomboy t. 849

Bulung'ur t. 1 059

Ishtixon t. 749

Payariq t. 1 041

Qo'shrabot t. 720

Kattaqo'rg'on t. 1 032

Paxtachi t. 542

Kattaqo'rg'on sh. 975

Narpay t. 461


(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | | | |
|------------------|----|-------------------|----|
| Toyloq t. | 68 | Urgut t. | 28 |
| Samarqand t. | 67 | Jomboy t. | 27 |
| Pastdarg‘om t. | 55 | Kattaqo‘rg‘on sh. | 24 |
| Samarqand sh. | 53 | Oqdaryo t. | 15 |
| Paxtachi t. | 46 | Bulung‘ur t. | 10 |
| Narpay t. | 41 | Payariq t. | 9 |
| Kattaqo‘rg‘on t. | 38 | Nurobod t. | 6 |
| Ishtixon t. | 35 | Qo‘schrabot t. | 3 |


(2024-yil 1-noyabr holatiga)

2024-yil 1-noyabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Samarqand shahrida – 725 ta, Urgut tumanida – 557 ta va Ishtixon tumanida – 478 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan, savdo sohasida – 2 417 ta, sanoat – 701 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 455 ta va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 181 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | |
|----------------|-----|
| Samarqand sh. | 725 |
| Urgut t. | 557 |
| Ishtixon t. | 478 |
| Pastdarg'om t. | 446 |
| Narpay t. | 425 |
| Toyloq t. | 402 |
| Paxtachi t. | 305 |
| Samarqand t. | 253 |

| | |
|-------------------|-----|
| Oqdaryo t. | 241 |
| Jomboy t. | 220 |
| Kattaqo'rg'on t. | 205 |
| Bulung'ur t. | 193 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 125 |
| Nurobod t. | 117 |
| Payariq t. | 92 |
| Qo'shrabot t. | 91 |

(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo’lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | | | |
|------------------|-----|-------------------|----|
| Samarqand sh. | 224 | Jomboy t. | 47 |
| Pastdarg’om t. | 134 | Toyloq t. | 47 |
| Samarqand t. | 105 | Bulung’ur t. | 46 |
| Kattaqo’rg’on t. | 101 | Narpay t. | 41 |
| Urgut t. | 65 | Oqdaryo t. | 37 |
| Payariq t. | 62 | Kattaqo’rg’on sh. | 21 |
| Ishtixon t. | 57 | Qo’shrabot t. | 16 |
| Paxtachi t. | 55 | Nurobod t. | 12 |

(2024-yil 1-noyabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra 7 768 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 45,0 foizi, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 21,8 foizi, sanoat – 19,6 foizi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,6 foizi, hududiy kesimda esa eng ko'pi Samarqand shahrida – 24,1 foizi, Samarqand tumanida – 11,8 foizi va Pastdarg'om tumanida – 10,5 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni*(birlikda)***Hududlar kesimida soni** *(birlikda)*

| | |
|------------------|--------------|
| Samarqand sh. | 1 874 |
| Samarqand t. | 921 |
| Pastdarg'om t. | 819 |
| Payariq t. | 610 |
| Kattaqo'rg'on t. | 477 |
| Toyloq t. | 470 |
| Ishtixon t. | 423 |
| Jomboy t. | 414 |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni*(birlikda)*

(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)

**Dehqonchilik va chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**

Fermer xo'jaligi – ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektiidir.


Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 100,0 foizini tashkil etadi.



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

| | |
|------------------|----|
| Jomboy t. | 14 |
| Qo'shrabot t. | 6 |
| Payariq t. | 3 |
| Pastdarg'om t. | 2 |
| Oqdaryo t. | 1 |
| Bulung'ur t. | 1 |
| Kattaqo'rg'on t. | 1 |
| Narpay t. | 1 |
| Urgut t. | 1 |


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2024-yil 1-noyabr holatiga)

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'naliishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Urgut (13,6 foizi), Payariq (11,9 foizi) va Bulung'ur (9,9 foizi) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(2024-yil yanvar-oktabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

2024-yil yanvar-oktabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 158,9 foizni tashkil etdi.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | |
|------------------|----|
| Samarqand sh. | 75 |
| Samarqand t. | 17 |
| Pastdarg'om t. | 10 |
| Qo'shrabot t. | 9 |
| Toyloq t. | 7 |
| Jomboy t. | 6 |
| Kattaqo'rg'on t. | 5 |
| Oqdaryo t. | 4 |

| | |
|-------------------|---|
| Ishtixon t. | 4 |
| Urgut t. | 4 |
| Paxtachi t. | 3 |
| Nurobod t. | 3 |
| Bulung'ur t. | 2 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 1 |
| Payariq t. | 1 |

(2024-yil 1-noyabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 597 ta korxonadan 272 tasi qo'shma korxona va 325 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

| | |
|----------------|-----|
| Samarqand sh. | 286 |
| Samarqand t. | 45 |
| Urgut t. | 43 |
| Pastdarg'om t. | 32 |
| Jomboy t. | 30 |
| Oqdaryo t. | 28 |
| Qo'shrabot t. | 22 |
| Bulung'ur t. | 17 |

| | |
|-------------------|----|
| Ishtixon t. | 16 |
| Toyloq t. | 16 |
| Kattaqo'rg'on t. | 14 |
| Nurobod t. | 14 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 12 |
| Payariq t. | 11 |
| Paxtachi t. | 10 |
| Narpay t. | 1 |

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 4,1 foizga oshdi.


Yetakchi o'rinni 131 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 21,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Samarqand viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 17,0 foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi 15,6 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,5 foiz) va Tojikiston (ulushi 3,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalg qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Samarqand shahriga 47,9 foiz, tumanlar orasida esa Samarqand – 7,5 foiz, Urgut – 7,2 foiz va Pastdarg'omga – 5,4 foiz to'g'ri keladi.

(2024-yil 1-noyabr holatiga)



(2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, *birlikda*)

Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida jadal o'sishlar kuzatilmogda hamda xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya, biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liqdir.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024-yil 1-noyabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTI HUZURIDAGI
STATİSTİKA AGENTLİĞİ

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

GTIR kodini kiriting:

Aparatxonalerni tekshiruvchilarning
zalqaralariga qarab:

Rahbarligi kodini kiriting:

Oshish

C) 2020-yil. JSC "Statistica" sanoatining
2020-yil.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Samarqand viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:(66) 235-14-42

PRESS-RELIZ

